

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2016- yil 24- noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016- yil 13- dekabrda ma'qullangan

Qonundan ko'chirma

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

#### **1-modda. Ushbu qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda.

#### **Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun xujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun xujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

#### **3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**korrupsiya** – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda

foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik**- korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**manfaatlar to'qnashuvi**- shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishni mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

#### **4-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari**

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

Qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.

#### **5-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

#### **6-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar**

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilish mumkin.

Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu Qonuning qoidalari samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko'rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

#### **2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga**

**oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar**

**7-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari**

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston**

**Respublikasining Prezidenti**

**Sh.MIRZIYOYEV**

Samarqand shahri, 2017- yil 3- yanvar

№ O'RQ-419



**SAMARQAND VILOYATI**

**STATISTIKA BOSHQARMASI**

*(Tijorat tashkilotlari uchun)*

**SAMARQAND – 2022- y.**

SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASINING ISHONCH  
TELEFONLARI

(66) 235-58-95